

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI YO'NALISHI
3-KURS TALABASI OTABEKOVA HILOLANING
"LEKSIK SISTEMA VA UNING TUZILISHI"
MAVZUSIDAGI**

R E F E R A T I

NAMANGAN-2017

Reja:

Kirish.

1.Lisoniy sistema va uning mikrosistemalari.

2.Leksik sistema va uning bo'linishlari.

3.Leksik monosemiya va polisemiya. Ma'no ko'chishi.

4.Leksik ma'no turlar: sinonimiya, antonimiya, omonimiya va paronomiya.

Xulosa.

Kirish

Leksikologiya barcha tillarning lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumnazariy masalalari bilan birga ayrim olingan bir tilning lug'at boyligi masalalari bilan ham shug'ullanadi.

Lesikologiya tilshunoslikning semisalogiya , onomasiologiya, etimologiya va frazeologiya kabi bo'limlar bilan hamkorlikda ish ko'radi. Bunday hamkorliksiz tilning lug'at boyligidagi leksik-semantik hodisalarni, lug'at tarkibi taraqqiyotiga oid til faktlari to'g'ri yoritib bo'lmaydi.

Tilning leksik, fonetik va grammatik sathlari ham o'zaro bog'liqdir: fonetik birliklar so'zni bog'liq tusiga kiritadi, morfemalar yasama so'zlarni shakllantiradi, so'zlarning birikuvchanlik imkoniyatlari, uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlari ularning leksik va gramatik ma'nolariga hamda uslubiy semalariga tayanadi. Bular leksikologiyaning fonetika, morfemika, so'z yasalishi, gramatika va uslubshunoslik (stilistika) bilan aloqada bo'lishini taqozo qiladi.

Leksik sistema va uning bo'linishlari-bu ajralib chiqqan leksik sath bu bosqichda ikki katta - mustaqil va nomustaqil so'zlar guruhiga bo'linadi. Bu bo'linish privativ zidlanish asosida hosil bo'ladi va zidlanish belgisi «ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik»dir.

Leksikologiyada tilning lug'at boyligi sistemasi sifatida tadqiq qilinadi, chunki bu boylik so'zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig'indisi emas, balki birliklar va elementlar tizimidir. Bu tizimdagi so'z va elementlar yaxlit bir "organism"ning "to'qimali" va "hujayrali" munosabatida bo'lad: so'zlarning ifoda vamazmun tomonlari orasidagi aloqalar, leksik ma'no va uning semalari o'rtasidagi butun va qism munosabatlari, so'z ma'nolarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari shundan dalolat beradi. Bu tizimning asosiy birligi so'z ekanligini hisobga olsak, leksikologiyada bevosita so'zning o'zi bilan bog'liq masalalari ham ko'riladi: so'zning til birligi sifatidagi mohiyati, so'z strukturasi (ifoda va mazmun planlari, semantik tarkibi), leksik ma'no va uslubiy semalar, leksik ma'no va etimon, leksik ma'no taraqqiyoti, udual va okkazinal ma'nolari shular jumlasidandir.

Asosiy qism

Lisoniy sistema va uning mikrosistemalari. Leksemalarni sistem tadqiq qilishning asosida ularni o'zaro ichki munosabatlariga tayanib ma'lum bir qatorlarga, guruhlarga, turlarga, turkumlarga, aniqrog'i, kichik va katta paradigmalariga birlashtirish yotadi. Aslida birliklar bizning xohish-irodamizga bog'liq bo'lmagan holda ongda paradigmalar holida yashaydi. Bizning vazifamiz esa ana shu paradigmalarni, ularning yashash qonuniyatlarini ochishdan iboratdir.

Leksemalarning o'zaro muayyan o'xshashligi, farqli va zid belgilari asosida birlashgan guruhlar tizim yoki lug'aviy sistema deb ataladi. Lug'aviy tizim boshqa tizimlar kabi pog'onali qurilishga ega. Lison bir necha ichki tizimlardan iborat murakkab sistema bo'lganligi kabi leksik sistema ham o'z o'rnida bir necha tizimchalardan tashkil topadi. Bu pog'onaviylik lisonidan boshlanib alohida leksemagacha davom etadi va bu bir necha bosqichdagi birliklar orasida, aytilganidek, qat'iy lisoniy munosabatlar hukm suradi.

Buni quyida lisonidan nutqqa qarab bosqichma-bosqich ko'rib o'tamiz.

1-bosqich. Bu bosqichda yaxlit butunlik sifatida qabul qilingan lisoniy sistema «ma'noviylik» oppozitsiya belgisi ostida fonologik fonetik, leksik-semantik va grammatik sathlarga bo'linadi. Bu bo'laklar o'zaro privativ ziddiyatli munosabatdadir. Bunda fonologik fonetik sath belgisiz va leksik-semantik, grammatik sathlar belgisi a'zo hisoblanadi. Chunki leksik-semantik sathning birliklari bo'lgan leksemalar, grammatik sath birliklari bo'lgan morfemalar hamisha ma'lum bir ma'no ifodalaydi. Fonologik sath birliklarining ma'noga munosabati murakkabdir. Chunki aslida fonologik birliklar faqat ifoda planiga ega birliklar sifatida qoraladi. Shuningdek, ayrim holatlarda chunonchi, ayrim tovushlarni cho'zish asosida ma'noni kuchaytirish, ba'zi fonetik hodisalarning ma'no farqlash uchun xizmat qilishi fonemalarning ba'zan ma'noviy bo'lishini ko'rsatadi.

Demak, lisonning dastlabki bo'linishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\begin{array}{cc} \text{«Ma'noviylik»} & \\ + & 0 \\ \text{L/G} & \text{F} \end{array}$$

Bundagi belgili a'zo murakkab bo'lib, leksik-semantik va grammatik sathlarni o'zida birlashtirgan. O'z o'rnida bu sathlar «ma'noning umumlashmaligi» belgisi ostida noto'liq ziddiyatda turadi. Bu ziddiyatda grammatik sath (Sg) belgili va leksik-semantik (Sl) sath belgisiz a'zo sanaladi. Chunki grammatik sath birliklari umumlashgan grammatik ma'noli bo'lsa, leksik sath birliklari umumlashgan ma'noga ham, har biri xususiy ma'noga ham ega bo'ladi.

Birinchi bosqich lisoniy munosabatlari umumiy manzarasini quyidagicha beramiz.

Lisoniy tizim murakkab bo'lganligi bois uning ziddiyatlari qatorini yanada kengaytirish mumkin. Masalan, «ifodaviylik» belgisi ostida ham mazkur bo'linish birliklari noto'liq ziddiyatda bo'ladi. Bu ziddiyatda belgili a'zosi tilning ifoda, moddiy asosini tashkil etuvchi fonologik/fonetik sathlarning uslubiy bo'yoqdor qatlamidan iborat bo'lib, ziddiyat tasvirini quyidagicha berish mumkin:

Ko'rinadiki, sathlar o'zaro privativ ziddiyatli bo'lsa-da, ularning birida farqlovchi belgisi ham bor. Bu ularning ekvipolent ziddiyatli munosabatga ham ega ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, Sf Sl dan ma'noviyligi bilan farqlanadi.

Leksik monosemiya (yunoncha: monos - "bir"+semia - "belgi") - leksemaning faqat bitta ma'noga ega bo'lishi. Masalan, o'zbek tilidagi guruch leksemasi "sholidan oqlab olinadigan oshlik don" ma'nosini, abadiy leksemasi "mangu, doimiy" ma'nosini, tun leksemasi "sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tobg otguncha bo'lgan qismi" ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa manolari yo'q.

Monosemiya hodisasi o'zbek tilshunosligida bir ma'nolilik deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: to'rtburchak

(matem.termin), gummaxona (yangi yaratilgan leksema), supper market (yangi ozlashtirilgan so'z) va boshqalar.

Yangi yaratilgan yoki boshqa tillardan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'o manoli so'zlarga aylanib qolishi mumkin. atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.

Leksim polisemiya (yunoncha: poli - "ko'p"+semia - "belgi") - leksemaning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan, tuz leksemasining semantic tarkibida quyudagi leksik ma'nolar bor: 1) "kislorod tarkibidagi vodorod o'rnini biror metal egallashi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalar"(asosiy tuzlar, sulfat kislata tuzlari); 2) "kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi" (osh tuzi); 3) ko'chma: "kumsaning boshqa odamga bergan , yedirgan-ichirgan ovqati"(tuz bermoq, tuzini yemoq); 4) ko'chma: mantiq, ma'no, mazmun: "Iyi-iyi, bu oyimchaning gapida tuz bormi o'zi?"(I.Rahim)

Leksik polisemiya, odatda, bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar orasidagi mazmuniy yo'nalish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan leksik omonimiyadan farq qiladi.

Ma'noning ko'chishi – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, nafas leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi "o'pkagaolinadigan va undan chiqariladigan havo" dir, ammo nafasingizni illiq qiling deganda nafas leksemasi "havo"ni emas, "gap" ni va "niyat" ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakillanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas va gap fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish nafas leksemssining mazmun darajasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari uchraydi:

1. Metafora to'li bilan ma'no ko'chirilishi.

- a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: burun ("odamning burni" – bosh leksik ma'no) burun ("choynakning burni" hosila ma'no);
- b) ikkita belgi xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: tez ("oz vaqt ichida , darrov" –bosh leksik ma'no: majlis tez tugadi) – tez ("darrov achchig'lanadigan, jizzaki"- hosila ma'no: tez odam) ; cho'qqi ("tik narsalarning eng yuqori nuqtasi" – bosh leksik ma'no: tog' cho'qqisi) – cho'qqi ("erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'ono daraja ko'rsatkich" – hosila ma'no :ilm-fan cho'qqisi: baxt cho'qqisi) ;
- c) narsa – predmetning u yoki bu qismining o'rin nuqtai nazaridan o'xshatish asosida: bosh ("atamasining bo'yindan yuqoridagi qismi" – bosh leksik ma'no: odamning boshi) – bosh ("tik narsaning tepa qismi" – hosila ma'no : shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi);
- d) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida : urmoq ("qo'l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq" – bosh leksik ma'no : Bektemir miltiq qo'ndog'i bilan uning peshonasiga bir urdi) – urmoq ("tanqid qilmoq" – hosila ma'no; Ota – buvamni kavlab, gazetaga urib chiqishdi).

2.Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi (funksional ko'chirish):tomir (anat. "qon tomirlari " – bosh leksik ma'no) –tomir (biol. "o'simlil tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar " – hasila ma'no). Tomir leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan "qon tomirlar " va " o'simlik tanasidagi to'qima naychalar" bajarilayotgan bazifadagi o'xshashlikka asoslangan : har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik irganizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilish o'q (nayzaning o'qi) – o'q (miltiqning o'qi) – o'q (zambarakning o'qi) kabi nomlanishlardan ham bor;

Izoh: bazan ma'noning ko'chirilishida metafo'ra va funksiyadoshlik (vazifadoshlik) omillari birga qatnashadi: tish ("odamning tish") – tish ("arraning tish") kabi. Bunda odam tishlari o'rtasidagi shakliy- vazifaviy o'xshashliklar ma'no ko'chirilishiga olib kelgan .

2. Metonimiya bilan ma'no ko'chirilishi (yunoncha: metonimiya – “qayta nonlash”). Bunday ko'chirilish predmetlar yoki hodisalarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagi ko'rinishlari bor:

- a) o'simlikning nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan maxsulotga ko'chiriladi: muskat (uzumning bir navi) – muskat (shu uzum navidan tayyorlangan vino) , choy (o'simlikning bir turi) – choy (shu osimlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik) , qahva (qahva daraxti) – qahva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik kofe);
- b) zamon va makonda bir – birining bo'lishini taqozo qilgan hamda birga qo'llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi: bir piyola choy ichmoq (piyola o'z ma'nosida) – bir piyola ichmoq (piyola – ko'chma ma'noda);
- c) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet – voqeylikka ko'chiriladi: sinf (“o'quv xonasi ”) – sinf (“o'quvchilar guruhi ”), shahar (“yirik ahali punkiti”) – shahar (“shahar aholisi”) kabi. Masalan, “Yangi yil kutish bahonasida tunni bedor o'tkazgan shahar tongni ko'zda uyqu bilan kutib oldi ” (T.M.)
- d) narsa nomi shu narsaga asoslangan o'lcho'v birligiga nom bo'lib ko'chadi: kun (“quyosh”) – kun (“sutkaning yorug' qismi ”), oy (“planeta”) – oy (“yilning o'n ikkidan bir qismi”). Ba'zan kunning aksi ham bo'ladi: vaqt o'lchovi nomi vaqtni o'lchaydigan asbobga nom bo'lib ko'chadi: soat (“sutkaning yigirma to'rt dan biriga teng vaqt”) – soat (“vaqtni sutka davomida o'lchab beradigan asbob”);
- e) belgining nomi shunday belgisi bor bo'lmagan narsaga ko'chiriladi: ko'k (rang nomi) – ko'k (“ko'kat”) - ko'k (“osmon”) ; yupqa (“qalinning aksi”)

– yupqa (taom nomi). Bunday ko'chirilish leksik semantik yo'l bilan yangi so'zning yasalishiga ham olib keladi. qiyos qiling: ko'k (1) –sifat, ko'k (2) –ot, ko'k (3) –ot; yupqa (1)- sifat, yupqa (2)- ot kabi. Demak, ko'k (1), yupqa (1) sifatlardan ko'k (2) – ot, ko'k (3) va yupqa (2) otlari yasalgan. Bu hol polisemiya bilan so'z yasalishi va omonimiya hodisalari o'rtasida o'ta murakkab munosabatlar birligidan dalolat beradi.

- f) Asar muallifining nutqda “asar”ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin: Navoiyni o'qidim, Oybekni o'qiyapman kabi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari nazarda tutiladi. Demak, bunda ham metonimiya bor., ammo u til metonimiyasi emas, nutq metonimiyasidir.

4.Sinegdoxa yo'li bilan ma'no ko'chirilishi (yunoncha:synekdoxe- “birga anglamoq” , “qo'shib anglamoq”). Bunday ko'chirilish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko'chiriladi: qo'l (butun) – qo'l (qism – “barmoq” ma'nosida:besh qo'l barobar emas), bosh “butun” – bosh (qism – “miyya”, “aql – xush”manolarida: tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan);

b) qismning nomi butunga ko'chiriladi: olma (qism “meva”) – olma (butun – daraxt; olma gulladi) , eshik (qism- “uyning eshigi”, “hovlining eshigi”) – eshik (butun- “uy”, “hovli”: Eshigimda juda ko'p odamlar ishlagan. O.), tirnoq (qism) - tirnoq (butun- “bola”, “farzand” : Sizga og'ir. Peshonangizga tirnoq bitmadi. Ko'nglingiz yarim. R.) , tuyoq (qism) – tuyoq (butun – “uy hayvoni” , “mol”: Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan. O.).

Leksik sistema va uning bo'linishlari. Ajralib chiqqan leksik sath bu bosqichda ikki katta - mustaqil va nomustaqil so'zlar guruhiga bo'linadi. Bu bo'linish privativ zidlanish asosida hosil bo'ladi va zidlanish belgisi «ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik» (N) dir. Ziddiyatning belgisi a'zosi sifatida nomustaqil leksemalar va belgisiz a'zo sifatida mustaqil leksemalar yuzaga chiqadi. Buning sabablari quyidagicha:

Nomustaqil leksemalar (Sln) hech qachon mustaqil qo'llana olmaydi, bog'liq qurshovlardagina kela oladi.

Mustaqil leksemalar (Sln) mustaqil qo'llanish bilan birgalikda, nutqda nomustaqil so'zlar sifatida ham yuzaga chiqadi. Ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar, ko'makchi fe'llar shular jumlasidandir.

Mustaqil leksemalar orasidan nomustaqillashgan so'zlar nutqimizda paydarpay voqelanib turadi.

Bu bosqichda leksik guruh majmualari yana ikki belgi asosida zidlanadilar. Bularning biri «shakliy o'zgarmaslik» (O') bo'lsa, ikkinchisi «Ma'noning umumlashganligi» (U) belgisidir. Har ikkala zidlanishda nomustaqil so'zlar belgisi, mustaqil so'zlar belgisiz a'zolar sifatida yuzaga chiqadi.

Nomustaqil so'zlarning ziddiyatda belgisi a'zo sifatida namoyon bo'lishi izoh talab qilmagani holda, mustaqil leksemalarning belgisizligi shundaki, ular sirasida o'zgarmas so'zlarning ham mavjudligi (ravishlar va taqlidlar) va ayrim o'rinlarda so'z o'zgartiruvchi kategoriyalarning neytrallanishidir. Masalan, so'zlarning birikuvida joylashuv omili kuchayganda shakliy omil susayadi: tosh ko'prik, xat yozmoq kabi. Shuningdek, mustaqil leksemalarda ma'noviy umumlashuvchanlari ham bor.

Demak, ikkinchi bosqichda ajraladigan ikki tizimiy birlashma (paradigma)ning lisoniy qiymati quyidagicha:

$$Sl\ m+ N0O'0U0$$
$$Sl\ n+ N+O'0U+$$

Bu majmuaga Sl ning birinchi bosqichda ega bo'lgan ikkinchi bosqich uchun umumlashtiruvchi belgilarni qo'shsak, belgilarning to'liq qatori quyidagicha bo'ladi:

$$Sln+M+U0I0N0O'0U0$$
$$Sln+ M+U0I0N0N+O'+U+$$

Ma'lum bo'ladiki, mustaqil so'zlar guruhi ikkinchi bosqichda hech qanday aniq va qat'iy belgiga ega bo'lmadi. Chunki birinchi guruh (ya'ni, mustaqil

so'zlar) birliklarining asosiy belgisi «ma'noviylik» bo'lganligi sababli ular shakliy va vazifaviy belgilar asosidagi zidlanishda barqaror belgilarga ega bo'lmasligi mumkin. Nomustaqil leksemalarning «nomustaqillik»larining mohiyati ularning shakliy va ma'noviy xususiyatlaridadir. Shuning uchun ular bu bosqichda barqaror belgilarini namoyon qiladi.

III bosqich. Bu bosqichda nomustaqil so'zlar (Sln) «bog'lash» funktsional belgisi asosida zidlanadi va guruhlariga bo'linadi. Nomustaqil so'zlar leksikologiya uchun o'rganish manbai bo'lmaganligi bois biz ularni tahlil etishni shu nuqtada to'xtatganimiz ma'qul.

Mustaqil leksemalar guruhi bu bosqichda «ma'noning ishoraviyligi» (D-dektivlik) belgisi asosida noto'liq ziddiyatli munosabatini namoyon qiladi. Bunda ishoraviy ma'noli so'zlar-olmoshlar ajralib chiqadi.

Fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid va so'z- gaplardan iborat guruhning bu ziddiyatda belgisizligining sababi shundaki, ularning barchasining tarkibida semantik «bo'shashgan» va olmoshlarga yaqinlashgan so'zlar talayginadir (narsa, kishi kabi otlar, shunday qilmoq/bo'lmoq kabi fe'llar, boshqa, hozirgi kabi sifatlar, ko'p, oz kabi miqdor sifatlari, endi, picha kabi ravishlar hamda so'z-gaplarning barchasi ishoraviy ma'noli birliklardir). Bu guruh ham o'z navbatida yana ikki guruhga:

- a) atovchi/nomlovchi so'zlar guruhiga (Sl ma) va
- b) tasvirlovchi so'zlar (Sl mt)ga ajraladi.

Bunday ajratish «tasvirlovchilik» (T) belgisi asosidagi privativ ziddiyat zaminida bo'lib, bunda so'z-gaplar, taqlidlar tasvirlovchi so'zlar-gaplar, taqlidlar tasvirlovchi so'zlar sifatida belgisi a'zo, atovchi/nomlovchi bo'lgan qolgan leksemalar (fe'l, ot, sifat, son, ravish belgisiz a'zo mavqaida bo'ladi).

Atovchi leksemalarning «tasvirlovchilik» belgisiga nisbatan neytralligi esa bu so'zlar ichida ma'nosida tasviriylik, uslubiy bo'yoqdorlik kuchli bo'lgan leksemalarning soni anchaligi bilan belgilanadi.

Demak, mustaqil soʻzlar III bosqichda maʼnaviy xususiyatlariga koʻra boʻlinish asosida uch ichki guruhni beradi va ularning umumiy lisoniy qiymati quyidagicha:

Olmoshlar + D+

Tasvirlovchi soʻzlar + D0T+

Atovchi soʻzlar + D0T0

Bu bosqichda ajralib chiqadigan belgili soʻzlar soni tarixiy taraqqiyot davomida belgisiz aʼzolar hisobidan boyib boradi. Boshqacha aytganda, yordamchi leksemalar mustaqil leksemalar hisobidan, olmoshlar va tasvirlovchi leksemalar atovchi leksemalardan oziqlanadi.

IV bosqich. Mustaqil leksemalarning III bosqichda ajralib chiqqan 5 ichki guruhi bu bosqichda maʼnaviy asoslarda ichki boʻlinishlarni beradi.

1.Olmoshlar hozirgi tilshunosligimizda ajratiladigan maʼnaviy turlar (kishilik olmoshlari, soʻroq olmoshlari, koʻrsatish olmoshlari, belgilash olmoshlari) ga ajraladi. Ularning zidlanishlari teng qiymatli (ekvipolentdir), yaʼni har bir guruh oʻziga xos maʼno va vazifa bilan ikkinchisiga qarama-qarshi turadi.

2.Soʻz-gaplar ham modal, undov, taklif-ishora, tasdiq inkor soʻzlar kabi ichki guruhlarga ajralib, ularning zidlanishlari ham ekvipolent tabiatlidir.

3.Taqlidlar bu bosqichda tovushga taqlidlar va obrazga taqlidlar sifatida ekvipolent ziddiyatli guruhlarga boʻlinadi.

4.Ravishlar ham mavjud maʼno turlariga ekvipolent ziddiyatlar asosida ajraladi.

5.Ravishlar ajralib chiqqandan keyin atovchi leksemalarning qolganlari anʼanaviy feʼllar, otlar, sifatlar, sonlar kabi maʼnaviy turkumlarga ajraladi. Feʼllar harakat-holatni (H), otlar umumiy predmetlikni (P), sifatlar belgi-xususiyat (BX), sonlar miqdorli (MQ) maʼnosini ifodalashga xoslanganligi bilan atovchi soʻzlarning «shaklini oʻzgartirmaslikka neytral» guruhchasidan bir-bir ajralib chiqadi va hozirgi tilshunosligimizda ajratiladigan soʻz turkumlarini beradi.

Bu bosqichning ikkinchi qator zidlanishida Oʻ belgisi neytrallikdan aksiga oʻtadi va bu guruhdan ajralib chiqqan feʼllar nisbat (NS), otlar son va kichraytirish-

erkalash (KE), sifatlar daraja (DR), sonlar - tartib, dona, ulush, jam, kasr va boshqalar. (TJ) kabi tasniflovchi grammatik kategoriyalarga ega ekanliklari bilan o'zaro ekvipolent zidlanadi.

Atovchi leksemalarning ichki bo'linishida fe'l, ot, sifat va sonlar munosabati privativ tabiatlidir.

Aytilganlardan va jadval umumlashmasidan ma'lum bo'ladiki, leksemalar ma'noviy xususiyatlariga ko'ra dastlab 4 katta guruhga ajratilishi lozim:

yordamchi leksemalar;

ishoraviy leksemalar;

tasviriyl leksemalar;

atash/nomlash ma'noli leksemalar.

Jadval leksemalar orasidagi muhim qonuniyatni namoyon qiladi.

Jadvaldagi guruhlarining ikki chekkasidan o'rin olgan birliklar- fe'llar va ko'm+akchilar leksika va grammatika zidlanishida ikki qutbni egallaydi.

Fe'llarda leksemalarning boshqa sath birliklaridan farqlanishining eng oliy namunasi namoyon bo'lsa, ko'makchilarda leksemalarning morfemalar bilan qorishib ketishini ko'ramiz.

Lisoniy tizimning I-IV bosqich parchalanishi an'anaviy morfologik tasnif - so'z turkumlarini ajratishgacha davom etdi va dastlabki uch bosqich bo'linishi privativlik, to'rtinchi bosqich bo'linishi esa ekvipolentlik munosabati asosida kechadi.

Leksemalarning tizimiy birlashmalarini ochishni so'z turkumlaridan alohida va muayyan bir leksemagacha (misol sifatida [ot] leksemasini tanladik) davom ettiramiz.

V bosqich. Ot so'z turkumining atoqli va turdosh otlarga bo'linish sof matniyl bo'lib, ko'p hollarda grammatik, balki hatto leksik tizimga ham aloqador emas. Chunonchi "Tosh qattiq" gapida tosh leksemasi atoqlilik va turdoshlik jihatidan ma'noviy zidlanishda (kontrastiv distributsiyada) turadi va bu gap ikki xil mazmun beradi:

1.Tosh-qurumsoq kishi.

2.Tosh-mustahkam jism.

Turdosh otlar ijtimoiy shart-sharoit asosida atoqlilanishi mumkin. Shuning uchun turdosh va atoqli otlarning o'zaro oppozitsiyasi «alohidalik (yakka predmetni atash)» belgisi asosidagi privativ ziddiyatdir va bunda atoqli otlar belgili, turdosh otlar belgisiz a'zo mavqeida bo'ladi. Shuning uchun turdosh otlar osonlikcha atoqlilanishi mumkin va bu, asosan, ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liqdir. Lekin atoqli otlarning turdoshlanishi juda kam uchraydi va u ma'naviy usul bilan so'z yasalishi sifatida qaralishi lozim.

VI bosqich. Bu bosqichda turdosh otlar muayyan va mavhum turlarga bo'linadi. Bu bo'linish turdosh atoqlilik/turdoshlikka ko'ra grammatik qurilishga bir qadam yaqindir. Chunki mavhum ot yasashning maxsus derivatsion qolipi mavjud ([muayyan ot+lik+mavhum ot]).

Aniq va mavhum otlar orasidagi farq ma'naviydir. Muayyan va mavhum otlarning o'zaro zidlanishlari privativ bo'lib, «muayyanlik» belgisiga tayanadi. Bunda aniq otlar belgili, mavhum otlar va harakat ismlari belgisiz a'zo mavqeida turadi.

Bu bosqichda ikkinchi qator ziddiyat «belgi-xususiyatlik» asosida bo'lib, unda mavhum otlar belgili, muayyan otlar belgisiz a'zo mavqeida bo'ladi. Shuning uchun hatto ishoraviy ma'noli so'zlardan yasalgan menlik, kimlik, o'zlik kabi mavhum otlarda belgi ma'nosi yetakchilik qiladi.

VII bosqich. Bu bosqichda otlar, odatda, yakka va jam, ya'ni donalab sanalishi mumkin bo'lgan narsani atovchi otlar va ma'lum bir majmuani, to'plamni atovchi otlarga bo'linadi.

Izomorfizm (lotincha izo –o'xshash, morfo –shakl) atamasi tilshunoslikka ilk bor E.Kurilovich tomonida kiritilgan bo'lib, tilning turli sath birliklarining ichki tuzilishi o'rtasidagi o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi.

Uning fikricha, tovush komplekslari (masalan, bo'g'in) va semantik komplekslar (masalan, gap), funksional munosabatlaridan qat'iy nazar, chuqur

struktur parallelizmga ega. Ular o'rtasida izomorfizm deb nomlanishi mumkin bo'lgan ajoyib o'xshashlik bor.

Leksik sistema tartibidagi leksemalar tahlilida qiyinchilik tug'ilganda, uni boshqa sistemaga solishtirish va ular o'rtasidagi o'xshashlik asosida ma'lum xulosaga kelib bo'lish mumkinligi haqida L.A.Novikov ham o'z fikrini bayon qiladi.

Leksik sistemani tuzishda fonologiya bilan semantika o'rtasidagi o'xshashlikni (analogiyani) e'tiborga olish bilan amliyatga ega. 1964-yida Magdeburgda bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumda fonologiya bilan semantika o'rtasidagi shunday o'xshashlikni yoritish haqida fikr yuritadi.

Fonologiya tovushlar sistemasining belgilashi kabi semantika ma'nolari sistemasini belgilashi lozimligi ta'kidlandi. U yerda takidlanishicha, fonologik sathda ancha mustahkam ishlangan tadqiqot bilan va tushunchalar sistemasini leksik sistemasiga olib o'tilishi leksik-semantik tahlilni birmuncha mukammaltiradi.

Professor E.Begmatov leksikada sistemalilik xususida fikr yuritib, tilshunoslikda tilning leksik boyligini xam muayyan sistema sifatida tasavvur qilish va ilmiy tasniflashlari sifatida quydagilarni keltiradi:

- 1) so'zlarni so'z turkumlariga ajratish usuli, yani so'z turkumlari sistemasi ;
- 2) so'zlarni yasaliş modallariga ko'ra tasnif qilish usuli, yani so'z yasash usullari;
- 3) so'zlarni funksional-stilistik guruhlarga ajratish usuli, ya'ni so'zlarning stilistik-differentsial guruhlari;
- 4) so'zlarni ma'lum mavzu guruhlarga ajratish usuli, ya'ni so'zlarni mavzu guruhlari va boshqalar.

“Bir so'z turkumiga xos so'zlarning mazmuniy sinflari bu, azolari umumiy ma'no (invariant ma'no-identifikator) bilan bog'langan ma'lum darajada murakkab guruhlardan iborat bo'lgan paradigmatic turdagi leksik maydonlardir.

Ularga so'zlarning sinonimik va antonimik birlashmalari, leksik-semantik guruhlari kiradi. A'zolari doimiy (regulyar) oppozitsiyalari bilan bog'langan

so'zlarning semantik sinflarini "mazmuniy paradigmalar" deb atash ham uchraydi. Unda ma'lum paradigmatic maydonlarning turli mikromaydonlari e'tiborga olonadi.

Leksik-semantik paradigmalarining tuzilishini, asosan, binary oppozitsiyalar-ikki tomonlama zidlanishlar shakllantiradi. Ammo borliq hodisalarning ko'p tomonli aloqalari bilan bog'liq bo'lgan ko'olik a'zoli zidlanishlar xam bo'lishi mumkin. Masalan, rang ifodalovchi so'zlar faqat ikkitasi (oq va qora) emas, deyarli hammasi zidlanishi mumkin: yashil, sariq, kuk, qizil... .

Pradikmatik tuzilish harakteriga so'zlarning barcha leksiz guruhlari, atamalar sestemasi, hatto mavzuviiy guruhlarga ham ega. Biroq ularni sestemaliligiga xos ifodalanish darajasini sistemalilik asosida yotuvchi qarama-qarshiliklarning doimiylik darajasi bir xil emas. Bu faktlar ko'p jihatdan ekstralingvistik omillar bilan bog'liq. Ekstralingvistik omillar ma'lum darajada so'zlarning sinonimik qatorlari sturikturasi, ko'proq mavzuiy qatorlari bilan bog'liq bo'ladi.

Leksi ma'no turlari.

Leksik sinonimiya. Leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruxlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi gurux); in, uya, oshyon (ikkinchi gurux); nur, shula, yog'du, ziyo (uchinchi gurux) va boshqalar. Bunday guruxlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi. Har bir sinonimikqatorda:

a) leksemalarning denotative ma'nosi bir xil ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qo'llanish doirasi) har-xil bo'ladi. Masalan, ozod, erkin, hur, sarbast leksemalari bitta denototni- "o'z erki, haq huquqiga egalik" ni ataydi, biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda ham bir: xususan, erkin leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, ozod leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, hur leksemasida badiiy uslubga hoslik sezilib turadi, sarbast leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: Erkin nafas olmoq (O'.T 2- tomi 451). Toki, bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin! (I.Karimov). yashnagan el tillarda dosto, qutlug' nomi hur O'zbekiston (M.Sh). Podshohning nigohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisolashmay, ko'pincha ularni qo'lg'a olib, sarbast yashaydilar (O.);

b) ifoda semalari bazan darajalanadi: yuz, bet, aft, bashara, turq leksemalarining barchasida (“yuz” dan boshqalarida) salbiy bo’yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo’yoqli ifodalanish darajasi har-xil: u “bet”dan “turq”qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o’zining qirq yillik umr yo’ldoshiga o’xshata olmadi.(M.Ism.) , Sherbekning ko’ziga Xo’jabekovning aftidan nahsi tomoyotgandek jirkanch bo’lib ko’rinib ketdi. (S.An.), U bir ko’ngli, borib, muttaham qozining tumshug’iga tushurgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.Ism). Devor ustida turgan o’n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko’chirib olib, Mulla Norqo’ziga o’xtaldi: “Xu o’l, turqing qursin!” (A.G’.);

e) ifoda semalari bo’lmagan , betaraf ma’noli leksemalar sinonimik qotorni do’minantasi sanaladi. CHunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq(dominanta-yuz); nur, shu’la, yog’du, ziyo (dominanta-nur);yolg’iz,yakka, tanho (dominanta-yolg’iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qator), nur(ikkinchi qatorda) va yolg’iz (uchinchi qatorda) betaraf ma’nolidir;

g) leksemalarning turkum semalari bir xil bo’ladi, bu hol sinonimlarning bir so’z turkumiga birlashishini taqozo qiladi: bahor va ko’klam (ot), chiroyli va go’zal (sifat), so’zlamoq va gapirmoq (fe’l) kabi.

Yuqoridagi xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har-xilligidan kelib chiqib leksik sinonimlar quydagi turlarga ajraladi:

1. Ma’no sinonimlari (idiografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma’no qirralari bilan fa, farqlanadi. Masalan, achchiqlanmoq, g’azablanmoq, qahrulanmoq leksemalari “g’azabi kelmoq” ma’nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ular shu ma’noni ifodalash darajasi bir xil emas, u “achchiqlanmoq” dan “g’azablanmoq”ga, “g’azablanmoq”dan esa “qahrulanmoq” ga qarab kuchayib boradi.
2. Uslubiy sinonimlar (sitilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma’nosi ijobiy yoki salbiy bo’yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo’ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq,

tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no-“ovoz chiqarmay miyig'ida kulish” hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida bir oz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa bir oz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq irjaymoq, tirjaymoq ishshaymoq va irshaymoq leksemasida yanada ortib boradi. Qiyos qiling: U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi.(M.Ism.) Sho'xroq qiz, yigitlar iljayib, bir-biriga ko'z qisib qo'yishadi. (“Mushtum”).

3. Nutqiy sinonimlar-nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgan holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga hoslangandir.
4. Kontekstual sinonimiya-til birligi sifatida o'zro sinonim bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munodabatga kiritilishi. Masalan, chinni va kosa so'zlarning leksik ma'nolari bir xil emas: chinni “piyoladan kattaroq idish” ni ataydi. Demak, biri “material” ni ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan “idish” ni anglatadi, shunga ko'ra ular sinonim hisoblanmaydi. Ammo ayrim shevalarda chinni leksemasi “kosa” ma'nosida ham qo'llanadi. Binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u kosa leksemasining sinonimiga aylanadi. Masalan, Xoljonbeka... xitoyi chinnida moy olib keldi (J.Sh).

Leksik antonimiya- leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir. Oq va qora, qalin va yupqa kabi.

Antanomiya hodisasi, asosan, bir so'z turkimi leksimallari doirasida yuz beradi.

Sifatlarda: a) hajim belgisiga k'ora: katta va kichik, baland va past, b) xarorat belgisiga ko'ra: issiq va sovuq; v) yosh belgisiga kora: yosh va qari; g) xarakter-

xususiyat belgisiga ko'ra; sahiy va xasis, botir va qorqoq, aqilliy va ahmoq; d) shakil belgisiga ko'ra: to'g'ri va egri, e) maza-ta'm belgisiga ko'ra: achchiq va shirin kabi.

Payt, holat, miqdor, maqsad ma'noli leksimalar doirasidan ham antanomiya hodisasi keng tarqalgan: a) kecha va ertaga, avval va ketin (payt belgisiga ko'ra), b) tez va sekin, arang va bermalol (hola belgisiga ko'ra), v) kop va oz, mo'l va kam (mikdor belgisiga ko'ra), g) atayin va beixriyor, jo'rttaga va behosdan (maqsad va manosiga ko'ra) va bular. Bunday leksimalarning sifat va ravish turkimiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali bolib qolmoqda.

Otlarda: a) belgi otlarida: boylik va qambag'alik, botirlik va qorqoqlik, b) qarama-qarshi tamon nomlarda: sharq va g'arb, janib va shimol; v) fasil nomlarida: yoz va qish, kuz va bohor, g) sutkaning qarama-qarshi tamonlarini ifodalovchi nomlarda: kecha va kundiz, tong va shom kabi.

Fellarda: a) qarama-qarshi harakat manolarini ifadalovchi fellarda: bormoq va kelmoq, kirmoq va chiqmoq; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fellarda: kengaymoq va taroymoq, ko'paymoq va azaymoq, sekinlashmoq va tezlashmoq kabi.

Ba'zan fe'lning sifatdosh shakli sifat turkimidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishish mumkin: o'qigan va bilimsiz, o'qimagan va bilimli kabi.

Antanomiya hodisasi sifat turkimida keng tarqalgan, ot va fe'llar bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bolmaydi (ayrim kontekstural holatlar bundan mustosno).

Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatga kiritilishi. Buni quyidagi sheri misrada tahlil qilib ko'rish mumkin:

Ushoq qand oq tuzga monand erur,

Va lekin biri tuz, biri qand erur.

Omomimiya hodisasi. Leksik omonimiya leksemalarning ifoda planidagi (talaffuz va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, o't ("olov")-o't ("maysa"),

kamar (“qiyin, ko’ndan ishlangan belbog’ ”)-kamar (“daryo, tog’lardan suv o’yib ketgan chuqur joy”) kabi.

Leksik omonimiyada ikki xil hodisa omonimlar va omoformalar.

1. Omonimlar shakli bir xil, ma’nolari har xil (o’zaro bo’lmagan) leksemalardir (yuqoridagi misollar). Ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko’pchiligi bir so’z turkumiga mansubdur, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo’ladi. Qiyos qiling: ot (“ism”) – otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi, ot (“hayvon”) – otim, oting, oti; otni, otning, otga.. kabi.

Yani: bo’sh (sifat) – “ichiga hech narsa solinmagan”: bo’sh chelak kabi; bo’sh (sifat) – “tortilmagan”: arqonni bo’sh tortib bog’lamoq kabi.

Bu tipdagi omonimlar (omonim omoleksemalar) turli so’z turkumlariga mansub bo’lishi ham mumkun. Bunday paytda omonikim munosabatga kirishayotgan so’zlar shakllanish tizimiga ega bo’lmasliklari kerak. Masalan, tabiiy (sifat) va tabiiy (modal so’z): 1) U tabiiy fanlarga ko’proq qizizadi. (Bu gapda tabiiy sifat, aniqlovchi); 2) Go’zamol, badavlat qori tog’aning birdan ko’z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo’chi tushunmadi (Bu gapda tabiiy- modal so’z).

2. Omoformalar ayrim grammatik shakllardagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi. Masalan, sur (ot: ”qorako’l teri navi”) va sur (sifat: ”och kul rang”) leksemalari ayni shu lug’atga kiriladi, biroq ot turkumidagi sur leksemasi turlanganda (surni, surning, surga... kabi) sur (ot) va sur (sifat) o’rtasidagi shakliy tenglik yo’qoladi. Demak, bu ikki leksema o’rtasidagi shakliy tenglik ot turkumiga sur so’zi bosh kelishik shaklida bo’lgandagina saqlanib, boshqa shakllarda yo’qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemalardan farq qiladi.

O’t (o’t : olov) va o’t (fe’lning ikkinchi fanda buyruq maylidagi shakli) munosabatiga boshqachoroq holat kuzatiladi: o’t fe’l lug’atga o’tmoq shaklida kiritiladi, binobarin, o’t (ot) va o’tmoq (fe’l) o’rtasidagi shakliy tenglik

yo'qligi ma'lum bo'ladi. Demak, omoforma bo'lish turli so'z turkumiga mansub leksemalarning ayrim gramatik shakllarigagina xos.

Tilda leksik omoniya yondosh bo'lgan hodisalar ham bor. Bular quyidagilar:

1. Omofonlar- talafuzi bir xil, yozilishi har-xil bo'lgan leksemalar: to'rt (son tarkibidagi so'z) – tort (ot tarkibidagi so'z : "koditer mahsuloti") , to'n ("kiyim") – ton ("tovush toni") , bob (talaffuzda bop) va bop kabi.

2. Omograflar- yozilishi bir xil, talafuzi har xil bo'lgan leksemalar: soya ("quyosh nuri tushmaydigan salqin joy") – soya ("dukkakli o'simliklarning bir turi va uning doni ") rom (sipirtli ichimlikning bir turi) kabi.

Tilda urg'usi bilan farq qiladigan, ammo bir hil yoziladigan leksemalar ham bor: atlas ("material") – atlas ("geogr.atlas"), fizik ("fizik hodisa") – fizik (fizika mutaxasisi) kabi. Bular urg'u belgisisiz yozilganda omograflar sanaladi, urg'u belgisi qo'yilganda (atlas va atlas, fizik va fizik kabi grafik shakllarga kirganda) esa omograf bo'lmaydi. Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas.

Paronimiya (yun.para –"yonida "+onyma- "nom ") – ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi. Bunday o'xshashlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksema tarkibidagi tovushlarning fizik-akustik yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, arqon va arkon. Bu ikki so'z tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ammo ulardan birinchisi "q", ikkinchisida esa "k" fonemalari qatnashgan. Bu ikki fonemaning biri ("q") chuqur til orqa, ikkinchisi ("k") esa sayoz til orqa, ikkilasi ham jarangsiz, portlovchi undoshlardir, demak , ulardagi fizik-akustik va artikulyatsion belgilar bir-biriga juda yaqin, shuning uchun arqon va arkon leksemalari talaffuzida bir-biriga o'xshashlik bor. Taxya ("sidirg'a matodan tayyorlangan do'ppi") va takya ("odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy") so'zlarida ham shunday; bayon va boyon so'zlari esa "a" va "o" unlilarining qo'ti keng ekanligi, urgusiz bo'g'inda qo'llanganligi bu ikki so'zning talaffuzidagi o'xshashlikka, demak, paronimiyaga sabab bo'lgan. Biroq arpa va arfa so'laridagi bunday o'xshashlik, ohangdoshlik

yo'q, chunki ulardagi "p" va "f" undoshlarining "portlash("p"da) va sirg'anish ("f"da) belgilari talaffuzida sezilarli darajada farqlanadi, buning ustiga bu leksemalarning so'z urg'usi xam har hil joylashgan (arpa va arfa kabi). Demak, so'z tarkibidagi bir tovush bilan farqlanib doimo paronimiyaga olib kelavermaydi. Aks holda tildagi kvaziomanimlarning (minimal juftliklarning) barchasini paranimlar deb baholashga to'g'ri kelardi: boy-poy- toy, bosh-tosh-mosh, til-tish, ish-in-ip kabi. Bunday so'lar qatori ko'p bo'g'inli so'zlar hisobiga yana-da ortadi: daraxt-karaxt, paxta-taxta, tomon-somon kabi. Bu xol, tabiiyki, paronimiya hodisasini cheksiz qilib qo'yadi.

Yuqoridagi mezonni (tovushlardagi fizik-aksustik va artikulyatsion yaqinlikni hamda aktsentologik umumiylikni) yasama so'zlar paronimiyasiga ham tadbiq etsa bo'ladi. Xususan, yolqin va yorqin so'zlarida tovushlar o'xshashligi (o'zakdagi "i" va "r" ning ikkalasi ham til oldi va sonor ekanligi) bu ikki leksema talaffuzining bir-biriga yaqinligini ta'minlagan, ammo yon va yoq o'zak so'zlardan yasalgan yonilg'i va yoqilg'i leksemalarini, yo'q va yoq o'zak so'zlarda yasalgan yo'qlamoq va yoqlamoq so'zlarini paronomlari deyish qiyin chunki bu so'zlarning o'zagidagi tovushlar artukulyatsiyasida hamda fizik-akustik belgilarida sezilarli tafovutlar bor: "yo'q" va "yoq" dagi "n" – til oldi, sonor, jarangli; "q" chuqur til orqa, portlovchi jarangsiz; "yo'q" va "yoq"dagi " o' " – o'rta keng, lablashgan; "O" – quyi keng, kuchsiz lablashgan. Ayni shu tafovutni belgilari tufayli yonilg'i va yoqilg'i, yo'qlamoq va yoqlamoq leksemalarining talaffuzi paronimiyaga mezoniga mos emas. Qolaversa, turli o'zakdan bir xil affiks bilan so'z yasash paronimiyaga olib keladi deb qarash. " bog' ", " dog' ", " yog' " o'zak so'zlaridan yasalgan bog'lamoq, dog'lamoq, yog'lamoq so'zlarini, shuningdek, "qora" va "qada" o'zak so'zlaridan yasalgan qaroqchi leksemalarini ham paranimlar deb tan olishga majbur qiladi, vaholanki ularning birortasida paronimlik darajasidagi talaffuz uyg'unligi yo'q.

Paronimiyada ba'zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo'lmasligiham mumkun, ammo ularning talaffuzida birbiriga yaqinlik, ohangdoshlik, bo'lishi shart: bo'sa (4ta fonema) -bo'lsa (5ta fonema), amr(3ta

fonema) –amir (4ta fonema), asr (3ta fonema), -asir (4ta fonema), abonent (7ta fonema) – obonement (9ta fonema) diplomat (8 fonema) diplomant (9 ta fonema) kabi.

Paronimlar omonimlar va omofonlardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1.Paronimlarning talaffuzi bir- biriga yaqin, o'xshash bo'ladi (yuqoridagi misollar). Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil bo'ladi : o't-(“maysa”) va o't – (“olov”) kabi.

2.Omofonlar ham talaffuz bir xildir. Tub va tup (yozuvda) – tup va to'p (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz ham o'xshash bo'ladi: ganj va ganch kabi.

Omofonlarda fonemalar miqdori teng bo'ladi, paronomlar esa ular teng bo'lishi ham, teng bo'lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling: to'n – “kiyim” (3ta fonema) – ton “tovush to'ni” (omofonlar), asr (3ta fonema) – asir (4ta fonema) – poronimlar kabi.

Paronimlarni so'z variantlari bilan qorishtirmaslik kerak: paronimlar bir so'z turkumiga mansub bir necha leksemalardir: san'at va sanoat kabi. Variatsiyalar esa bir leksemaning turli ko'rinishlari, xolos: tomosha va tamosha , doppi va do'ppi, gado va gadoy, shohi va shoyi kabi.

Shuni alohida dakidlash kerakki, tilshunoslikda paronimiya hodisasining izchil mezonlari yetarli darajada ishlanmagan, shuning uchun bir xil hodisaga har-xil baho berish holati tez-tez uchrab turadi. Demak, masalaning muammoli jihati hali anchagina bor. Ularning maxsus tadqiq qilish tilshunoslikning navbatdagi vazifalardan biri bo'lmog'i kerak.

Paronimlarning nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda o'ziga xos uslubiy ahamiyati bor. Paronimlarning tovush tarkibidagi o'xshashlik, bir-biriga yaqinlik ba'zan, qisman bo'lsada, shakl netralizatsiyasiga olib keladi. Oqibatda ayrim kishining nutqida ularning farqlay olmaslik holati yuz beradi. Bunday holatni payqagan yozuvchilar, shoirlar yoki dramaturglar paronimlardan obraz yoki personajlarning ma'naviy dunyosini, nutqiy saviyasini obrazli qilib ifodalash

maqsadida foydalanadilar. Bu hodisa tilshunoslikda paronimaziya deb nomlanadi. "Charxpalak" videofilimidan keltirilgan quyidagi epizotda buni yaqqol sezish mumkin. Unda atrofdagi laganbardor yugurdaklarni to'plab olib bir obro'talab, mansabdor shaxs aroq ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz Zulxumor Hamidovaga qarata shunday deydi: "Mayli majbur qilmaymiz, bizga bu qizning sanoati juda ma'qul". Bu nutqiy parchada sanoat so'zi san'at leksemasi o'rnida qo'llangan bo'lib, u jamiyatda uchrab turadigan ayrim shaxslarning ma'naviy qashshoqligini, tilga befarqligini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Demak, asar muallifi (Sharof Boshbekov) shu epizotni tasvirlashda san'at va sanoat so'zining paronomlik munosabatdan juda o'rinli foydalangan.

Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "San'atkor" hikoyasida bo'sa va bo'lsa paronimlari uslubiy figura sifatida foydalanilganligining guvohi bo'lamiz. Hikoyada nomi chiqqan ashulachi san'atkorning "bo'sa" so'zini "bo'lsa" deb qo'llagani zalda o'tirgan bir tiraktorchi tomonidan tanqid qilinadi. Bundan darg'azab bo'lgan san'atkor o'ziga-o'zi deydi: "labingdan bo'sa olsa, e, shakarlab" deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! o'zi, bilmaydiyu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'sa bo'masa" deydi. Artist kulturniy odam – gapni adabiy qilib aytadi – "bo'lsa, bo'lmasa" – deydi.

Hikoyadan keltirilga bu parchada bo'sa va bo'lmasa paronimlarida mohirona foydalanish "taniqli ashulachi san'atkorning" istehzoli obrazini yaratishda xizmat qilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, leksik sistema leksikologiyani o'rganishda muxim o'rin tutadi. Yangi yaratilgan yoki boshqa tillardan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'o manoli so'zlarga aylanib qolishi mumkin. atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.

Tilning leksik, fonetik va gramatik sathlari ham o'zaro bog'liqdir: fonetik birliklar so'zni bog'liq tusiga kiritadi, morfemalar yasama so'zlarni shakllantiradi, so'zlarning birikuvchanlik imkoniyatlari, uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlari ularning leksik va gramatik ma'nolariga hamda uslubiy semalariga tayanadi. Bular leksikologiyaning fonetika, morfemika, so'z yasalishi, gramatika va uslubshunoslik (stilistika) bilan aloqada bo'lishini taqozo qiladi.

Leksik sistema va uning bo'linishlari-bu ajralib chiqqan leksik sath bu bosqichda ikki katta - mustaqil va nomustaqil so'zlar guruhiga bo'linadi. Bu bo'linish privativ zidlanish asosida hosil bo'ladi va zidlanish belgisi «ma'naviy va vazifaviy nomustaqillik»dir.

Leksikologiyada tilning lug'at boyligi sistemasi sifatida tadqiq qilinadi, chunki bu boylik so'zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig'indisi emas, balki birliklar va elementlar tizimidir.

Leksemalarning o'zaro muayyan o'xshashligi, farqli va zid belgilari asosida birlashgan guruhlar tizim yoki lug'aviy sistema deb ataladi. Lug'aviy tizim boshqa tizimlar kabi pog'onali qurilishga ega. Lison bir necha ichki tizimlardan iborat murakkab sistema bo'lganligi kabi leksik sistema ham o'z o'rnida bir necha tizimchalardan tashkil topadi. Bu pog'onaviylik lisondan boshlanib alohida leksemagacha davom etadi va bu bir necha bosqichdagi birliklar orasida, aytilganidek, qat'iy lisoniy munosabatlar hukm suradi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

- 1.B.Mengliev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi. 2004.
- 2.Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
3. Kollektiv mualliflar. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981.
4. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent, 1985.
5. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.
6. Sh.Rahmatullaev O'zbek tili omonimlari izohli lug'ati. Toshkent, 1984.
- 7.A.Ma'rufov Paronimlar lug'ati. Toshkent, 1974.
- 8.Sh.Rahmatullaev O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1978.
9. M.Mirtojiyev O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.